

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI

KODIROVA MUATTAR GANIJONOVNA

**GILONIY IJTIMOIIY-FALSAFIY QARASHLARIDA
SHAXSNING MA'NAVIY QIYOFASI**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI BO`YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2024

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on philosophical sciences**

Kodirova Muattar Ganijonovna

Giloniy ijtimoiy falsafiy qarashlarida shaxsning ma’naviy qiyofasi.....3

Кодирова Муаттар Ганижоновна

Духовный образ человека в социально-философских взглядах Гилони21

Kodirova Muattar Ganijonovna

Spiritual image of a person in Gilani's socio-philosophical views.....41

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of works published.....46

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH

NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI

KODIROVA MUATTAR GANIJONOVNA

GILONIY IJTIMOIIY-FALSAFIY QARASHLARIDA
SHAXSNING MA'NAVIY QIYOFASI

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Fal856 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Navoiy davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Safarova Nigora Olimovna
falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xajiyeva Maqsuda Sultanovna
falsafa fanlari doktori, professor

Safarboyev Madrahim
falsafa fanlar nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.02.2020.F.72.08 raqamli ilmiy kengashning 2024 yil “6” yanvar soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65) 221-57-27, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil “19” dekabr kuni tarqatildi.

(2024 yil “19” dekabr dagi 32 raqamli reyestr bayonnomasi.)



Namozov B.B.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

Sharipov A.Z.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori, professor

Muzaffarov F.D.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi o‘rinbosari,
falsafa fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda globallashuv jarayonlari jadal rivojlanib borayotgan bugungi kunda shaxs ma'naviy kamoloti, uning kelajagi, qalbi va ongi uchun xavf solib turgan destruktiv holatlarning avj olib borayotganligi shaxsning ma'naviy qiyofasini shakllantirish masalasini ustuvor vazifaga aylantirishni talab qilmoqda. Jamiyatdagi tezkor o'zgarishlar, axborot oqimining kuchayishi va madaniy ta'sirlar inson ma'naviyatiga ham ijobiy, ham salbiy ta'sir ko'rsatayotganligi bois ma'naviy qiyofani shakllantirish nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy-huquqiy va madaniy rivojlanish uchun ham zarur ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan tasavvuf ta'limotidagi halollik va rostgo'ylik fazilatlari hamda Abdulqodir Giloniy ma'naviy-merosidagi axloqiy fazilatlar – o'zgaga yuk bo'lmaslik va kamtarlik, iqtisodiy barkamol insonni shakllantirishga oid ijtimoiy-falsafiy qarashlarning axloqiy takomillashuvi va ijtimoiylashuvdagi lokal va global xususiyatlarini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilm-fani va yetakchi ilmiy markazlarida yangilanish jarayonlari va islohotlarga daxldorligini chuqur his qiladigan, faol fuqarolik pozitsiyasiga, kreativ va innovatsion tafakkurga ega bo'lgan zamonaviy shaxslarni tarbiyalashning konseptual asoslarini ishlab chiqishda Sharq mutafakkirlari ma'naviy merosining o'rni hamda ularni amaliy faoliyatga joriy etishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ijtimoiy-siyosiy hayotning keskinlashuvi jarayonida insonlar o'rtasida bag'rikenglik, birodarlik, sabr, qanoat, shukronalik, murosayu madora kabi axloqiy tamoyillarni shakllantirish o'ziga xos uslubiy, nazariy, g'oyaviy, ma'naviy va ma'rifiy ahamiyatga egadir. Shuning uchun Abdulqodir Giloniy ma'naviy-merosida ilgari surilgan shaxs ma'naviy qiyofasiga doir g'oyalarning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi pragmatik ahamiyatini, yoshlar ta'lim tarbiyasidagi rolini tadqiq etish zarurati ortib bormoqda.

Mamlakatimizda “Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari” tamoyili asosida ta'lim-tarbiya tizimini yangilashga va axloqiy fazilatlarga ega, yuksak ma'naviyatli, ruhan va jismonan sog'lom yoshlarni shakllantirishga oid tub islohotlar olib borilmoqda “Dunyo shiddat bilan o'zgarib, barqaror taraqqiyot va xalqlarning tadrijiy rivojlanishiga raxna soladigan turli tahdid va xavflar paydo bo'layotgan bugungi kunda ma'naviyat bilan bog'liq masalalar tobora dolzarblashib bormoqda. ...Azaliy milliy qadriyatlarimiz, ota-bobolarimizdan meros bo'lib kelayotgan odob-axloq qoidalarining butunlay yo'qolish xavfi yuzaga kelayotgan hozirgi globallashuv sharoitida, ma'naviyat va ma'rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e'tibor qaratish g'oyat birlamchi vazifamizdir”¹. Shu sababli buyuk mutasavvif Abdulqodir Giloniy ma'naviy merosidan ijtimoiy hayotning muammolari yechimini izlash, jamiyatda insoniy bag'rikenglik va murosasozlik muhitini yaratish, diniy-falsafiy, ma'naviy-ma'rifiy qarashlarining turli tajovuzkor ekstremistik, aqidaparastlik g'oyalariiga qarshi tura oladigan bunyodkor g'oya sifatidagi xususiyatlarini asoslab berish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

¹ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. – Тошкент: “O'zbekiston”, 2023. –Б. 276-277.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 1-iyuldagi PF-6255-son “2021-2026 yillarga mo‘ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi milliy strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” farmonlari, 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 23-iyundagi PQ-3080-son “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O‘zbekistonda Islom sivilizatsiyasi markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Abdulqodir Giloniyning irfoniyl-falsafiy qarashlari, qo‘lyozma asarlarining falsafiy tahlili hamda inson ma’naviyatiga oid g‘oyalarini tadqiq etishda jahon olimlari V.Bartold, Ye.E.Bertels, Frans Rozental, Dj.Trimingemlar tadqiqotlari muhim gnoseologik ahamiyat kasb etadi. Tasavvuf ta’limotining rivojlanishi va mohiyati xususida Majid Faxri, Muhammad Doro Shukuh, A.D.Knish, Usmon Turar, G.E.fon Gryunebaum tasavvuf ta’limotining axloqiy, ma’naviy mohiyatini ijtimoiy-gumanitar fan doirasida tadqiq etishgan².

² “Tuhfatul qodiriya”ning tarkibida bo‘lib, uning yana 4 nusxasi O‘zFA huzuridagi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida “Qasidai Jiloniy” va “Qasidai G‘avsiya” nomlari bilan mavjud. Ular №10650, №11342, №6491, №504 raqamlari ostida saqlanmoqda; “Qasidai g‘avsiya” Asarning qo‘lyozma nusxasi O‘zR FA huzuridagi Sharqshunoslik instituti Buxoro filiali xazinasida №27775/11 raqami ostida saqlanmoqda; Шайх Абдулқодир Гийлоний. Сиррул асрор. Мактубот.Таржимон О.Жўрабоев. - Т.: Мовароуннахр, 2005. 224 – б.; Asarning O‘zFA huzuridagi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida “Devoni Muhyi” nomi bilan 11 nusxasi mavjud.Ular quyidagi raqamlar ostida saqlanmoqda: №7321, №3337, №7015, №3876, №3393, №1049, №7498, №682, №676, №5646, №919, №1044.; Бартольд В. Мистицизм в исламе, Соч. Т.6. Ислам: - П.6 1918; Fakhry M. A history of islamic philosophy. N.Y. – L. Colambia univ press, 1970. XV. – 427 p; Muhammad Doro Shukuh.Сафинат-ул авлиё.Тошбосма асар, шахсий кутубхона; Кныш А.Д. Мусульманский мистицизм: Краткая история. Москва – Санкт-Петербург. “Диля”, 2004.; Турар У. Тасаввуф тарихи. Т.: Истиклол, 1999. 180 бет. Грюнебаум Г. Э. фон Классический ислам. Москва: Наука, Главная редакция восточной литературы.1988, - 215 стр.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarida S.N.Grigoryan, I.P.Petrushevskiy, A.I.Narinbaev, P.S.Taranov kabi olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar Abdulqodir Giloniy ilmiy merosining tasavvuf ta'limotida tutgan o'rnini ochib berishda tarixiy ahamiyat kasb etadi³.

Yurtimiz olimlari I.Mo'minov, M.Boltayev, M.Baratov, M.Xayrullayev, O.Fayzullayev, H.Aliqulov, R.Nosirov, B.To'rayev, Q.Nazarov, R.Shodiev, G.Navro'zova, B.Namozov, A.Xuseynova, N.Safarova, O.Sharipova, G.Yunusova, X.Raxmatova, E.Zoirovlar tadqiqotlarida Markaziy Osiyo tasavvuf maktablarining genezisi va g'oyaviy asoslari, shuningdek Abdulqodir Giloniyning ijtimoiy-axloqiy g'oyalari ochib berilgan. Shaxs ma'naviyati bilan bog'liq tadqiqotlar A.Choriyev, S.Choriyev, M.Qaxxorova, M.Hajiyeva, A.Sharipov, F.Qodirov, G.Ismoilova, X.Namozov, A.Qurbonovlar⁴ tomonidan amalga oshirilgan. So'nggi yillarda ushbu muammo doirasidagi tadqiqotlarda G.Yunusovning Abdulqodir Giloniy ma'naviy merosida inson mohiyatini falsafiy jihatdan tahlilini, B.Muxtarovning Giloniy ta'limotining global ma'naviy ahamiyati xususidagi izlanishlari hamda O.Jo'raboev, I.Ostonaqulov, M.Safarboyevlar tomonidan Giloniy asarlarining tarjimalari mavzu doirasidagi muammoni o'rganishda metodologik ahamiyat kasb etadi. Mavzu doirasidagi muammolarni tadqiq etishda tarixshchi olimlar E.Karimov, H.To'rayev tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar dissertatsiya mavzusi doirasidagi tasavvuf ta'limotlari genezisi va ijtimoiy-iqtisodiy davr taraqqiyotiga ta'sirini dalillashda muayyan darajada xizmat qildi⁵.

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlar klassifikatsiyasi shuni ko'rsatadiki, birinchidan, tadqiqotlarda tasavvuf, alohida tariqatlarning irfoni, falsafiy,

³ Григорян С.Н. Средневековая философия народов Ближнего и Среднего Востока. Москва: Наука, 1966. – 352 с.; Петрушевский И.П. Ислам в Иране в VII-XV вв. -Л., 1966; Таранов П.С. 120 философов: Жизнь. Судьба. Учение. Мысли / Универсальный аналитический справочник по истории философии: В 2 томах. Симферополь: «Реноме», 2005. — 704 с.

⁵ Мўминов И.Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тутган ўрни ва роли. Т., 1968. Мирзо Бедил.; Болтаев М.Н. Хўжаи Жаҳон Абдулоқ Абдулоқ Гўждувоний инсондўст ҳаким ва рифъат шайх. “Бухоро”. Бухоро. 1994, 56 бет.; Аликулов Х. Гуманистик мерос ва шахс маънавий камолоти. Т.: Фалсафа ва ҳуқуқ институти нашриёти, 2006. 59 б.; Наврўзова Г. Баҳоуддин Нақшбанд таълимоти Яъқуби Чархий тавсифида // Тафаккур зиёси. Т., 2020. № 2. –Б. 80-81. Хожа Баҳоуддин Нақшбанд ҳаёти ва маънавий мероси.– Т.: “Фан”, 2021. – 244 б; M.Qaxxorova, O'.Ahmedova. Ma'naviy tarbiya strategiyasi. Iskom tafakkuri jurnali. 2022-10-24.-B.102; Musulmon renessansi ijtimoiy-madaniy an'analarining etnopedagogik asoslari. Monografiya. Urganch 2024.194 bet.Namozov B. Muxammad Porsoning falsafiy ta'limoti. Monografiya. -To'shkent, "Mumtoz", 2015. –Б. 176.; Шарипов А.З. Инсон манфаатларини таъминлаш ва ҳалқ билан мулоқот қилиш жараёнларида ижтимоий ҳамкорлик. Имом Бухорий сабоқлари. Маънавий-маърифий, илмий-адабий журнал. №3, 2017– Самарқанд, 2017. –Б.73-76;Шарипова О. Абдулоқ Абдулоқ Гўждувоний. Монография. – Бухоро, “Бухоро нашр”, 2020. – Б. 156. Сафарова Н. Хожагон тасаввуфий таълимотида маънавий-ахлоқий қадриятлар масаласи. фал.фан.ном. Дисс.Тошкент, 2002.152 б.Қодиров Ф. Шахс фуқаролик маданияти: назарий модели ва шакллантириш йўллари. Фалс. фан. докт(PhD) автореферат. Бухоро. 2023. 47 бет Ismoilova G. O'zbekistondagi iqtisodiy islohotlarning shaxs ma'naviy qiyofasiga ta'siri. Fals. fan. dokt(PhD) avtoreferat. Buxoro. 2024. 51 bet. Namozov X. Интернет-мақоннинг шахс ижтимоийлашувига таъсири. Фалс. фан. докт(PhD) автореферат. Бухоро. 2024. 53 бет. Қурбонов А. Бадиий адабиёт –шахс маънавий юксалиш омили. Фалс. фан. докт(PhD) автореферат. Бухоро. 2024. 47 бет; Юнусова Г. Қодирия таълимоти ва унинг ижтимоий ахлоқий моҳияти. Фалс.фан.ном. дисс. автореферати. Тошкент. 2007. 26 бет.; Мухтаров Б. Глобаллашув жараёнида қодирия тариқати фаолиятининг ўзига хос хусусиятлари. Тошкент. “Bookmanu print”2022. 146 бет; Жўрабойев О. “Сиррул асрор” мактубот. Тошкент. “Мовароуннахр” нашриёти. 2005. 224-бет; Остонақулов И. “Авлиёлар султони”, “Туронлик авлиёлар” тўплам. Тошкент. Янги аср авлоди, 2004.; Сафарбойев М. Маноқиб Хазрат Ғавс ул Аъзам. Тошкент. “Фан зиёси” нашриёти. 2023. 180 бет; Каримов Э. Роль, место социальные позиции духовенства Мавераннахра в XV в. Автореф. дисс. канд.ист. наук. –Т., 1990. – 159 с.

aksiologik jihatlarini tadqiq etilgan; ikkinchidan, Abdulqodir Giloniy asarlarida inson muammosi borasida yaxlit kompleks ilmiy tadqiqot amalga oshirilmagan, uchinchidan, Abdulqodir Giloniy asarlari ijtimoiy falsafiy jihatdan tahlil qilinmagan. Shu sababli mazkur dissertatsiyada Giloniy ijtimoiy-falsafiy g'oyalarining ilmiy-nazariy asoslarini tadqiq etishga, shaxsga oid g'oyalarining mohiyatini ochib berish hamda shaxs ma'naviy qiyofasini ijtimoiy-falsafiy jihatdan asoslab berishga diqqat qaratilgan.

Dissertasiya tadqiqotining dissertasiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Navoiy davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq II band "Barkamol inson shaxsini shakllantirish va uning ijtimoiy-pedagogik mohiyati" (2022-2026 yy.) tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Abdulqodir Giloniy asarlaridagi shaxs ma'naviy qiyofasiga oid g'oyalarning ijtimoiy-falsafiy xususiyatini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Giloniy ijtimoiy-falsafiy g'oyalarining ilmiy-nazariy asoslarini tadqiq etish hamda falsafiy dunyoqarashining shakllanishida tarixiy shart-sharoitning ta'sirini asoslash;

mutafakkir tasavvufiy qarashlarida shaxsga oid g'oyalarning ijtimoiy-falsafiy mohiyatini ochib berish;

Abdulqodir Giloniy asarlarida shaxs ma'naviy qiyofasiga oid g'oyalarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash;

Abdulqodir Giloniyning "Rabboniylikni anglash" asari asosida bag'rikenglikka doir qarashlarning tasavvufiy talqinini ochib berish;

mutasavvif ta'limotidagi murosa muhitining jamiyat barqarorligini ta'minlash mezoni sifatida ahamiyatini asoslash;

jamiyat barqarorligini ta'minlash va yoshlarni barkamollik ruhida tarbiyalashda Abdulqodir Giloniy ijtimoiy-falsafiy qarashlarining o'rnini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti Abdulqodir Giloniy ijtimoiy-falsafiy qarashlari, shaxs ma'naviy qiyofasiga oid g'oyalari va ularning jamiyat taraqqiyotiga ta'siri tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti Abdulqodir Giloniy ijtimoiy qarashlaridagi shaxs ma'naviy qiyofasiga oid g'oyalar hamda "Sirrul asror" va "Rabboniylikni anglash" asarlarida ifodalangan ma'naviy fazilatlarining unga ta'sirini tadqiq etish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada analiz va sintez, dialektik, retrospektiv tahlil, qiyosiy tahlil, tizimlilik, sinergetik va funksional tahlil, ijtimoiy so'rovnoma kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Abdulqodir Giloniy ma'naviy-merosida ilgari surilgan axloqiy fazilatlar (o'zgaga yuk bo'lmaslik va kamtarlik) shaxs ma'naviy kamoloti mezoni hamda tasavvuf ta'limotidagi axloqiy kamolot bosqichlarining shaxs ma'naviy qiyofasining shakllanishida halollik va rostgo'ylik fazilatlarini shakllantirishi aniqlashtirilgan;

Qodiriya ta'limotidagi shaxs ma'naviy kamoloti uchun zarur bo'lgan qasam ichmaslik; yolg'on aytmalik; va'dani bajarish; la'nat aytish va azob berishdan saqlanish; jabr ko'rguzganga sabr bilan javob qilish; o'zgani ayblamaslik; haromdan uzoq yurish; boshqalarga yuk bo'lmaslik; ta'ma qilmaslik; tavozi, kamtarlik, xokisorlik kabi ma'naviy kamolot xislatlarining korrupsiyaga murosasiz munosabatni shakllantirishdagi, jamiyatni "halollik vaksinasi bilan emlash"dagi va ijtimoiy tarbiyaning milliy qadriyatlarga asoslangan shaklini ishlab chiqishdagi ahamiyati isbotlangan;

Abdulqodir Giloniyni "Rabboniylikni anglash" asaridagi bag'rikenglik (insonlarni butun borliq bilan hamjihat, hamkor, bir-birini tushunib, murosamadorada yashash) va kechirimlilik (la'nat aytish va azob berishdan saqlanish, jabr qilganda sabr bilan javob berish, o'zgani ayblamaslik) g'oyalari jamiyatda tinchlik va barqarorlik, do'stlik va ezgulikni qaror toptirishdagi hamda inson ijtimoiy qiyofasida pragmatik ahamiyati ochib berilgan;

Abdulqodir Giloniya ijtimoiy-falsafiy qarashlaridagi ijtimoiy faollikka oid mashg'ullik ila forig'lik shiorida halol mehnat bilan mashg'ul bo'lish, moddiy boyliklarga qalban bog'lanmaslik, ilohiy ishq bilan forig'lanish g'oyalari Hazrati Bahouddin Naqshbandning "Dast ba koru, dil ba yor" shioriga asos bo'lganligi hamda inson iqtisodiy kamoloti bosqichlarining (ishchi kuchi sifatidagi inson, aniq mehnat subyekti sifatidagi inson, tadbirkor sifatidagi inson, menejer sifatidagi inson) shaxs ma'naviy-axloqiy takomillashuvdagi ahamiyati asoslab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Qodiriya tasavvufiy kamolot yo'lining rutba, maqomot, rang va martabalar kabi o'ziga xos yo'li inson ruhini Oliy hadgacha kamolotga yuksaltirishi va naqshbandiya ta'limoti bilan mushtarak xususiyatlari hamda mo'tadil ta'limot sifatidagi ahamiyati ochib berilgan;

Shayx Abdulqodir Giloniyni "Rabboniylikni anglash" asaridagi shaxs ma'naviy qiyofasining shakllanishida boqimandalik, shaxsiy fikrning yo'qligi, ijtimoiy faollikning pastligi, murosasizlik kabi illatlarni bartaraf etishning jufti halol tanlash (birinchi bosqich), homilador ayolga mehr-muhabbat (ikkinchi bosqich), farzand tarbiyasida oila mas'uliyati (uchinchi bosqich) kabi ustuvor yo'nalishlari asoslab berilgan;

Abdulqodir Giloniya asarlari asosida insonning ilohiylik mohiyati sifatida qadrlangan bag'rikenglikning insoniy bag'rikenglik (butun borliqqa muhabbati va unga uyg'un harakat), oilaviy bag'rikenglik (mehmondo'stlik, mehribon va g'amxo'r bo'lish), mahalliy bag'rikenglik (diniy va millatlararo hamkorlikda yashash), el-yurt bag'rikengligi (urf-odat, e'tiqod hamjihatligi), xalqlar va davlatlararo bag'rikenglik (irq, jins darajasi, yashash joyidan qat'i nazar birlik va do'stlik) kabi ko'rinishlari jamiyat hayotida tinchlikni ta'minlash va mo'tadillikni ta'minlaydigan omil ekanligi aniqlashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo'llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalar, faktlar, statistik ma'lumotlarga murojaat qilingan holda olinganligi, tushuncha definitsiyasi ilmiy tadqiqot metodologiyasi va mantiq talablariga amal qilgan holda ishlab chiqilganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda

sinovdan o'tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari bo'yicha berilgan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilgan bo'lib, tavsiyalar amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan Markaziy Osiyo xalqlarining ijtimoiy-siyosiy, madaniy va falsafiy tafakkur rivoji, Abdulqodir Giloniy manaviy-axloqiy qarashlarini yanada chuqurroq va xolisona o'rganishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarida nazariy-metodologik asos sifatida, milliy-ma'naviy qadriyatlarni tiklash, sog'lom turmush tarzini shakllantirishda, yoshlarimizni o'zlikni anglash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda, shuningdek tarbiya va ta'limni uzluksiz asosda tashkil etishda, yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlarni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar, fazilatlar asosida shakllantirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" bosh tamoyilini amalga oshirishda, ma'naviyat va ma'rifat markazlari amaliy faoliyatida, aholi o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etishda, ijtimoiy sohada faoliyat olib boruvchi institutlarning buyuk olim asarlari asosida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, kitoblar, risolalar nashr etish, OAVda dasturlar tayyorlashda, oila, maktabgacha ta'lim, umumiy ta'lim, o'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to'liq yuzaga chiqarish va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko'tarishda, uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini amalga oshirish, shuningdek, ijtimoiy fanlar uchun o'quv-metodik qo'llanmalarni tayyorlashda, tasavvuf va falsafa lug'atlarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Abdulqodir Giloniy ijtimoiy-falsafiy qarashlarida shaxs ma'naviy qiyofasining tahlili bo'yicha olingan natijalar asosida:

Abdulqodir Giloniy ma'naviy-merosida ilgari surilgan axloqiy fazilatlar (o'zgaga yuk bo'lmaslik va kamtarlik) shaxs ma'naviy kamoloti mezonini hamda tasavvuf ta'limotidagi axloqiy kamolot bosqichlarining shaxs ma'naviy qiyofasining shakllanishida halollik va rostgo'ylik fazilatlarini shakllantirishiga oid yangiliklardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanali DM "Madaniy-ma'rifiy va badiiy eshittirishlar" muharririyatining 2024-yil yanvar va iyun oylarida efirga uzatilgan "Ta'lim va taraqqiyot", "Millat va ma'naviyat" dasturlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanali davlat muassasasining 2024-yil 26-iyuldagi 04-36-884-son ma'lumotnomasi). Natijada, efirga uzatilgan teleko'rsatuvlar, davra suhbatlari tasavvuf ta'limotidagi axloqiy kamolot bosqichlarining shaxs ma'naviy qiyofasi shakllanishida pozitiv ta'siri, Uchinchi Renessans ma'naviy poydevorini yaratishda Giyloniy ijtimoiy-falsafiy qarashlarining ahamiyati, Yangi O'zbekiston ma'naviy-axloqiy taraqqiyotiga ta'siriga bag'ishlangan ko'rsatuvlarni mazmunli tashkil etishga, dasturlarni so'nggi ilmiy yangiliklar bilan boyitishga xizmat qilgan;

Qodiriya ta'limotidagi shaxs ma'naviy kamoloti uchun zarur bo'lgan qasam ichmaslik; yolg'on gapirmaslik; va'dani bajarish; la'nat aytish va azob berishdan saqlanish; jabr ko'rguzganga sabr bilan javob qilish; o'zgani ayblamaslik; haromdan uzoq yurish; boshqalarga yuk bo'lmaslik; ta'ma'qilmaslik; tavo'zu', kamtarlik, xokisorlik kabi ma'naviy kamolot xislatlarining korrupsiyaga murosasiz munosabatni shakllantirishdagi, jamiyatni "halollik vaksinasi bilan emlash"dagi va ijtimoiy tarbiyaning milliy qadriyatlarga asoslangan shaklini ishlab chiqishdagi ahamiyati bayon etilgan nazariy mulohazalar va takliflardan O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi faoliyati, jumladan hududiy oliy ta'lim muassasalarida yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirishga doir dastur va loyihalarning ijrosi, 2024-yil "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili" davlat dasturlarining ijrosi hamda "O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi to'g'risidagi Nizom" asosida ekologik ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish, ekologik bilimlarni targ'ib qilish chora-tadbirlarini amalga oshirishda, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda, targ'ibot-tashviqot ishlarida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining 2024-yil 9-sentabrdagi 4-09-21-4708-son ma'lumotnomasi). Natijada, yoshlar o'rtasida olib borilayotgan targ'ibot tadbirlarining mohiyati boyitilgan va sifat jihatdan zamon talablari doirasida nazariy va pragmatik ahamiyat kasb etgan, yoshlar ma'naviy ongi shakllanishida tasavvuf bunyodkor g'oyalarining integrativ o'rnini asoslab berishga xizmat qilgan;

Abdulqodir Giloniyning "Rabboniylikni anglash" asaridagi bag'rikenglik (insonlarni butun borliq bilan hamjihat, hamkor, bir-birini tushunib, murosamadorada yashash) va kechirimlilik (la'nat aytish va azob berishdan saqlanish, jabr qilganda sabr bilan javob berish, o'zgani ayblamaslik) g'oyalarining jamiyatda tinchlik va barqarorlik, do'stlik va ezgulikni qaror toptirishdagi hamda inson ijtimoiy qiyofasida pragmatik ahamiyati keltirilgan nazariy mulohazalar va amaliy taklif-tavsiyalardan O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpog'iston filialida amalga oshirilgan A1-XT-0-92997 raqamli "Yoshlarni umuminsoniy, milliy va tarixiy qadriyatlar uyg'unligi asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning muammolari" amaliy loyiha doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpog'iston filialining 2024-yil 20-sentabrdagi 363-son ma'lumotnomasi). Natijada, dissertatsiyaning xulosa va takliflari Yangi O'zbekiston ma'naviy-axloqiy taraqqiyotiga ta'sirini, yoshlarining ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini yuksaltirishda ahamiyatini hamda loyiha doirasidagi nazariy metodologik tahlillarni yanada boyitish ilmiy dalillar sifatida xizmat qilgan;

Abdulqodir Giloniy ijtimoiy-falsafiy qarashlaridagi ijtimoiy faollikka oid mashg'ullik ila forig'lik shiorida halol mehnat bilan mashg'ul bo'lish, moddiy boyliklarga qalban bog'lanmaslik, ilohiy ishq bilan forig'lanish g'oyalari Hazrati Bahouddin Naqshbandning "Dast ba koru, dil ba yor" shioriga asos bo'lganligi hamda inson iqtisodiy kamoloti bosqichlarining (ishchi kuchi sifatidagi inson, aniq mehnat subyekti sifatidagi inson, tadbirkor sifatidagi inson, menejer sifatidagi inson) shaxs ma'naviy-axloqiy takomillashuvdagi ahamiyatiga oid takliflar, tavsiya va xulosalardan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2023-2023- yillarda

o'tkazilgan targ'ibot faoliyatida, jumladan, 2023-yil uchun chora-tadbirlar dasturining VIII yo'nalishida belgilangan "Milliy qadriyatlar, ma'naviy fazilatlar va ijtimoiy odoblar targ'iboti" 41-bandi "Milliy davlatchiligimiz tarixi, buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy-ma'naviy merosini o'rganish orqali aholi o'rtasida milliy birdamlik, vatanga sadoqat, milliy o'zligidan faxrlanish tuyg'ularini kuchaytirish"ga qaratilgan targ'ibot ishlarini tashkil etish va o'tkazishda foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutining 2024-yil 25-oktabrdagi 10-137-son ma'lumotnomasi). Natijada, Giloniy ijtimoiy-falsafiy qarashlarida shaxsning ma'naviy qiyofasi ilmiy tahlil etishga, yoshlarning dunyoqarashini yuksaltirish, vatanparvarlik, sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan avlodni tarbiyalashga, ma'naviy-ma'rifiy ishlarning ta'sirchanligini oshirish va ularni bugungi kun talablari bilan uyg'unlashtirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 6 ta ilmiy maqola (4 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya umumiy hajmi 135 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "**Kirish**" qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi tavsiflangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti, predmeti, tadqiqotda qo'llanilgan usullar yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchlilik, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda dissertatsiya natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e'lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Abdulqodir Giloniy ijtimoiy-falsafiy qarashlarini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari**" deb nomlanadi. Ushbu bobda G'avsul A'zam, Piri Dastgir, Qutbi Rabboniy nomlari bilan mashhur bo'lgan qodiriya ta'limotining asoschisi Muhyiddin Abdulqodir Giloniy ta'limotining vujudga kelish jarayonlari, bu ta'limot uchun ilmiy-nazariy asos sifatida talqin etilgan ta'limotlar tasnifi berilgan. Shuningdek, qodiriya ta'limotining vujudga kelishi, tarqalishi va bugungi kunda keng tarqalgan yangi tarmoqlari xususida yangi manbalar asosida ma'lumotlar taqdim etilgan. Ushbu tahlillar asosida Qodiriyaning ijtimoiy hayotdagi mavqei, unda ilgari surilgan g'oyalarning bugungi kunda yoshlar ma'naviyatini shakllantirishdagi ahamiyati ochib berilgan.

Dissertant Qodiriya ta'limotining ma'naviy-falsafiy asosi zardushtiylik diniga borib taqaladi degan fikrni asoslash maqsadida ushbu dinning muqaddas kitobi "Avesto"da Zardusht inson kamolotida muhim deb bilgan sifatlar quyidagi tartibda keltiradi:

- badan pokizaligi va ma'naviy soflik talablariga rioya qilish lozimligi;
- go'dak, yosh bolalar tarbiyasiga diqqat e'tiborni berish zaruriyati;
- ishyoqmaslik, yalqovlik va dangasalikni yoqtirmaslik⁶.

"Avesto"ning "Minuxirad" qismida bu borada shunday yozilgan: "Yalqovlik, dangasalikdan hazar qil, toki bu dunyoda o'z vazifangni bajarishdan orqada qolib ketmagan". Bu o'z navbatida Giloniy ta'limotida "Mashg'ullik ila forig'lik" degan hikmati biz uchun muhim hayotiy tamoyil bo'lib qolaveradi. Ya'ni inson biror ish bilan mashg'ul bo'lsa, u hech qachon birovdan qarz so'rab kun kechirishni odat qilmaydi, shuningdek o'g'rilik, g'azablanish, xusumat, takabburlik, manmanlik kabi salbiy xislatlarga bo'ysunmaydi. Ya'ni inson mehnat qilib, noz-ne'mat yaratib, undan bahramand bo'lib qalbida Yaratganning ishqidan forig'lanib yashaydi degan g'oya bilan mustahkamlagan.

Dissertatsiyada qadimgi davr faylasuf olimlari ta'limotlariga murojaat qilgan holda, ulardagi mavjud bunyodkor g'oyalar qodiriya ta'limotida ham mavjudligi va ular yanada rivojlantirilganligi asoslab berilgan. Fales, Pifagor, Lao Szi, bilan yaqin bo'lgan g'oyalarni qiyoslab berilgan. Qadimgi Yunon faylasufi Pifagor (576-496 yy) "Darg'azablik onida gapirish ham, harakat qilish ham kerak emas"⁷ degan o'giti Abdulqodir Giloniyning "Rabboniylikni anglash" asarida quyidagicha ifodalangan: "Alloh azza va jalla uchun g'azabingni namoyish qilma. Agar buni nafsing uchun chiqarsang, munofiq bo'lasan, chunki Alloh uchun bo'lgan narsa abadiy qoladi. Allohdan boshqa uchun bo'lsa, o'zgaradi yoki yo'q bo'lib ketadi" deydi. Shuningdek, Pifagor "Xudolar mohiyatini o'rganishni ruhoniylarga qo'y; sen esa inson qalbini bilish bilan shug'ullan" desa, Giloniy "Qalbingni nifoqdan xalos qil. Agar qalbing xalos bo'lsa, a'zolaring ham xalos bo'ladi. Qalb a'zolarining boshqaruvchisi. Qalb to'g'ri bo'lsa, a'zolar ham to'g'ri bo'ladi"⁸ – deya uqtiradi.

Dissertant fikriga ko'ra, Abdulqodir Giloniyning qaysi bir asariga murojaat qilinmasin, unda va'zlar, axloqiy pand-nasihatlar albatta oyatlar va hadislar mazmunini tahlil etish bilan izohlangan. Bundan tashqari, Giloniy o'zi ustozlaridan olgan saboqlari uning dunyoqarashining mutasavvif sifatida kamol topishiga turtki bo'lgan. Deyarli barcha manbalarda, Abdulqodir hazratlarining 18 yoshida Bag'dodga o'qishga borgan ta'kidlangan. U yerda zamonasining mashhur olimlaridan dars oldi. Jumladan:

- fiqh ilmini – Abu Xattob Mahfuz, Abulvafo Ali bin Uqayl, Abu Husayn bin qozi Abu Ya'lodan;

- hadis ilmini- Hasan Boqulloni, Abu Said Muhammad bin Karim, Abu G'anım Muhammad bin Muhammad, Abu Bakr Ahmad bin Muzaffar, Abu Ja'far, Abu Qosim bin Ali, Abu Tolib bin Abdulqodir, Abu Bakr Hibbatulloh ibni Muborak,

⁶ Жўраев.У., Саиджонов. Ё. Дунё динлари тарихи. – Тошкент: "Шарк", 1998. –Б.68.

⁷Жалолов. А. Сержило тафаккур дурдоналари. – Тошкент, 2003. – Б.37

⁸Абдулқодир Гилоний. Раббонийликни англаш. 1-китоб. / Таржима Мухаммаджон Нуриддин ва бошқалар. – Тошкент, 2005. – Б.62.

Abul'izz Muhammad bin Muxtor, Abu Nasr Muhammad, Abu G'olib Ahmad, Abu Abdulloh Yahyodan;

- tasavvuf ilmini esa Shayx Abu Said Mahzumi va Hammod Dabbosdan oldi. Demak, Abdulqodir Giloniyning faqih olim, muhaddis va mutasavvif bo'lib yetishishida yuqorida nomi qayd etilgan olimlarning ta'siri beqiyos bo'lgan. Chunki olimning qaysi asarlariga murojaat etmaylik unda ifoda etilgan g'oyalar Qur'on oyatlari va hadislar bilan dalillangan. Bu asarlar "Rabboniylikni anglash", "Al kunya li tolibi tariqil Haqq", "Sirrul asror" kabilardir. Masalan, "Rabboniylikni anglash" asaridan shunday misol keltirish mumkin: "ey botil, ey yalqov, ey qabuli oz! Agar men aytgan narsani qabul etib, amal qilsang, o'zing uchun amal qilasan. Agar amal qilmasang, nafsingga o'ch va mahrum bo'lib qolasan.

Qodiriya tariqati yo'lini tariqatlar tasnifiga ko'ra tariqi axyor (xayrlilar yo'li), tariqi abror (qalbi soflarning yo'li) va tariqi shuttor (ishq va jazba ahlining yo'li)ga maxsus kiritib bo'lmaydi. Chunki bu yo'lni qalbi soflarning yo'li deyish mumkin, chunki bu tariqatda riyozat va mushohada yo'li bilan axloqni go'zallashtirish, qalbni poklash asos qilib olingan. Lekin bu yo'lda ham "o'lmasdan oldin o'lmoq" mavjud bo'lib, ya'ni inson o'limni o'z irodasi bilan qabul etgan. Abdulqodir Giloniy hanbaliya mazhabiga mansub bo'lganligi bois mo'tadil nuqtai nazarda turgan, tanqidga uchraydigan so'zlar aytmaslikka harakat qilgan.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, tariqatlarni haq va botil deb ikkiga ajratadilar. Qodiriya tariqati islomning bosh asoslariga tayangan holda tashkil etilgan va shakllangani uchun haq deb tan olingan. Tasavvufiy qarashlarga ko'ra tariqatlarni qusudiya – o'z irodasini Alloh irodasiga foniyl qilganlar, shuhudiya – har narsa va ishda Allohni mushohada etuvchilar, vujudiya – Allohdan boshqa biron borliqni tan olmaydiganlarga bo'ladilar. Qodiriya tariqatini vujudiya tariqatlar tarkibiga kiritish mumkin. Chunki ular Olam Haqning tajallii shuun (nuri) va atvoridan iborat, mustaqil borliq yo'q degan fikrda turganlar. Markaziy Osiyo xalqlari hayotida muhim o'rin egallagan Giloniyning inson kamolotiga yo'llanma beruvchi "Al kunya li tolibi tariqil Haqq" asarlaridagi g'oyalar bunyodkorligi bilan bugungi kun uchun ham dolzarbdir.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **"Abdulqodir Giloniy ijtimoiy-falsafiy qarashlarida shaxs muammosi"** deb nomlanib, mutafakkir tasavvufiy qarashlarida shaxsga oid g'oyalarning jamiyat taraqqiyoitidagi ahamiyati hamda Abdulqodir Giloniy asarlarida shaxs ma'naviy qiyofasining ijtimoiy-falsafiy tahlili amalga oshirilgan.

Shaxsning shakllanishi va rivojlanishining muhim omili sifatida uning ijtimoiy faoliyati, sotsium hayotida muayyan rolni bajarishi namoyon bo'ladi. Indivud shaxs sifatida faqat turli-tuman ijtimoiy munosabatlardagina o'z-o'zini namoyon etishi mumkin. Abdulqodir Giloniy esa insonga quyidagicha baho bergan: "Odam – bu bir parcha yurakka ega bo'lgan kishidir. Insonni gapirtiradigan narsa bu uning qalbi"⁹.

Dissertatsiyada Giloniyning "Sirrul asror" asari asosida shaxs ma'naviy qiyofasi tahlili berilgan. Subyektivlik haqida so'z ketganda mazkur tushunchaning ikki ma'nosi borligini esda tutish lozim. Birinchidan, u ayrim individning tanlovi sifatidagi subyektivlikni anglatadi, ikkinchidan esa ushbu individ insoniy subyektivlik doirasidan tamoman chiqa olmasligini bildiradi.

⁹Абдулқодир Гилоний. Сиррул асрор. – Тошкент: "Мовароуннахр", 2005. – Б.91.

Dissertatsiyada islom dini ta'limotlarida yaxshilik va pokizalikning naqadar buyuk ne'mat ekanligi, birovga ozor bermaslik, til bilan dilni doimo bir tutish, nochorlarga zakot berish va ko'nglini ko'tarish chin insoniy fazilat ekanligi xususida eslatmalar mavjud. Islom dinida har bir kishining ma'naviyatli bo'lishi uning ilmiga, aqlu farosatiga bog'liq ekanligi ta'kidlanadi. Bu xususda payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) o'z hadislarida shunday fikr bildiradi: "Har bir musulmonga tolibi ilm qilish farzdir... Bir soat ilm o'rganish kechasi bilan namoz o'qib chiqqandan afzaldir. Bir kun ilm o'rganish uch oy ro'za tutgandan yaxshiroqdir"¹⁰.

Shaxs ma'naviy qiyofasining shakllanishida ayrim illatlar to'sqinlik qiladi, jumladan boqimandalik, shaxsiy fikrning yo'qligi, ijtimoiy faollikning pastligi, murosasozlik kabi fazilatlarining mavjud emasligi. Shaxs jamiyatda barkamollikka yetganidek, u avvalo oila atalmish muqaddas dargohda tarbiyalanadi, kamolga yetadi. Uning shakllanishida oila, ta'lim-tarbiya, atrof-muhit asosiy rol o'ynaydi. Ming afsuslar bo'lsinki, taraqqiyotimiz ildiziga zarba beradigan boqimandalik illati hozirgi kunda yoshlar orasida keng quloch yoymoqda. Bunga jamiyatda ot-onalarimizning farzand tarbiyasidagi bir qancha kamchiliklarga yo'l qo'yayotganliklari sabab bo'lmoqda.

Shaxsni kamolga yetkazishda, uni barkamol qilib tarbiyalashda tasavvuf ta'limotida ham alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, Shayx Abdulqodir Giloniyning "Rabboniylikni anglash" asarlarida ilmu ma'rifat, sabr qilish hamda shukrning mohiyati haqida ancha ibratli misollar keltirilgan.

Inson ma'naviy kamolotida mumtoz ta'limotlardan tasavvufning o'rni beqiyosdir. Qodiriya tariqatida inson ma'naviy-ruhiy kamolotida sayru sulukka ahamiyat berilgan. Bu davrda nafs tarbiyalanadi. Nafs ammorallikdan lavvoma, mulhima, mutmainna, roziya, marziya va safiya darajasiga yuksaladi¹¹.

Dissertant fikricha, eng avvalo, shuni ta'kidlab o'tish joizki, korrupsiyaga qarshi kurashning sifat va son jihatdan mutlaqo yangi darajaga ko'tarilishi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning siyosiy irodasi mahsulidir. Jumladan, davlat rahbarining jamiyatni "halollik vaksinasi bilan emlash" zaruriyati haqidagi fikrlari bu boradagi ishlarga qo'yilgan tamal toshi desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi. Demak Abdulqodir Giloniyning 10 asr oldin aytgan Ta'ma qilmaslik xislati o'sha davrda qay darajada inson ma'naviy olamiga ta'sir ko'rsatadigan bo'lsa, bugungi kunda ham dolzarbligini saqlab qolgan. Ijtimoiy tarbiyaning boshqa turlari kabi ma'naviy-axloqiy tarbiya asosini ham ilg'or milliy, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, xalq pedagogikasi g'oyalari tashkil etadi. Ma'naviyat shaxs, xalq, davlat va jamiyatning kuch-qudrati, taraqqiyoti, imkoniyatlari va istiqbollari belgilab beruvchi ichki ijobiy, ruhiy omildir.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, bugungi kunda jinsiy tarbiya, mehnat tarbiyasi yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Sog'lom turmush tarzini tarkib toptirish, ayniqsa, zarurligini kundalik hayot tarzi yanada yaqqol namoyon etmoqda. Tekinxo'rlik, narkomaniya, tamaki mahsulotlari va spirtli ichimliklarni iste'mol qilish, fahsh, johillik kabi salbiy illatlar ham hayotda uchrab turadi. Bu illatlar insonning axloqiy qiyofasigina emas, balki o'zini ham yemirib boradi. Inson ham ma'naviy, ham jisman halok bo'ladi. Shu bois insonning ma'naviy-axloqiy

¹⁰ Мухаммад пайгамбар қиссаси. Ҳадислар. – Тошкент: Камалак, 1991. – Б. 93.

¹¹ Турар У. Тасаввуф тарихи. – Тошкент: "Истиқлол" нашриёти, 1999. – Б.82.

tarbiyasini tashkil etish ijtimoiy tarbiyaning boshqa yo‘nalishlaridan ustun qo‘yilishi zarur. Binobarin, ma‘naviy-axloqiy tarbiya yosh avlod tarbiyasi bilan bog‘liqdir.

Dissertatsiyaning **“Uchinchi Renessans ma‘naviy poydevorini yaratishda Abdulqodir Giloniy ijtimoiy-falsafiy qarashlaridan nazariy asos sifatida foydalanishning ahamiyati”** deb nomlangan uchinchi bobda Abdulqodir Giloniy asarlarida ilgari surilgan jamiyat barqarorligining omili bo‘lgan murosasozlik, tolerantlik, tabiat va jamiyat qonunlariga muvofiq tarzda hayot kechirish talablari – inson ma‘naviy taraqqiyoti mezonini ekanligi tahlil etilgan. Bag‘rikenglik g‘oyasining tasavvufiy talqini (Abdulqodir Giloniyning “Rabboniylikni anglash” asari asosida) tadqiq qilingan. Barcha tasavvufiy tariqatlarda bag‘rikenglik masalasi alohida o‘rin tutadi. Xuddi shuningdek Abdulqodir Giloniyda ham kamolotga yetkazuvchi 10 xislatdan ayrimlarini tahlil etilgan.

Qodiriya tariqatida bag‘rikenglik tamoyilining turli ko‘rinishlariga Abdulqodir Giloniyning “Devoni G‘avsul A‘zam”, “Rabboniylikni anglash”, “Al g‘unya tolibi tariqul Haqq” asarlarida alohida e‘tibor berilgan.

Bag‘rikenglik – xilma-xil va rang-baranglikni qabul etish va ularga Umumiy Go‘zallikning bir jabhasi sifatida qarab, e‘zozlab, ular bilan uyg‘un bo‘lib yashashdir¹². Abdulqodir Giloniy ta‘limotining vahdati vujudan kelib chiqadigan asl mohiyati bag‘rikenglikdir. Abdulqodir Giloniy asoslagan qodiriya tariqati yo‘li ham, asarlari – “Al g‘unya li tolibi tariqul Haqq”, “Risolai qodiriya” (Muhammad Siddiq Rushdiy)dagi g‘oyalari ham bag‘rikenglikka chorlaydi. Bularning tahlili ko‘rsatadiki, Abdulqodir Giloniy bag‘rikenglikni juda keng ma‘noda tushungan va uni insonning ilohiylik mohiyati sifatida qadrlagan. Abdulqodir Giloniy asarlari asosida bag‘rikenglikning namoyon bo‘lishini quyidagicha ifodalash mumkin:

Dissertant fikricha, insoniy bag‘rikenglik – insonning butun borliqqa muhabbati va uyg‘un harakati demakdir. Buning oqibatida:

1. Oilaviy bag‘rikenglik - oila eshigining va oila ahli qalbining ochiqligi, mehmonnavozligi, mehribon va g‘amxo‘r bo‘lishi;

2. Mahalliy bag‘rikenglik - qon-qarindosh, qo‘ni-qo‘shni, turli din va millat vakillarining hamjamiyat va hamkorlikda va o‘zaro yordam qo‘lini cho‘zib yashashi, hashar, to‘y ma‘rakalarda yordam berishi va h.k.;

3. El-yurt bag‘rikengligi - mamlakat ahlining bir-birining urf-odat, e‘tiqod, g‘oyalarni tan olib, hamkor va hamjihat bo‘lib yashashi;

4. Xalqlar va davlatlararo bag‘rikenglik - millati, irqi, jinsi darajasi, yashash joyidan qat‘i nazar birlik va do‘stlikda yashash vujudga keladi.

Umuman, jamiyatimizda tinchlik va barqarorlik, do‘stlik va ezgulik amalga oshishida Abdulqodir Giloniyning bag‘rikenglik g‘oyalarini insonlar qalbi va ongiga singdirish yo‘li va vositalari haqida chuqur mulohaza qilish yaxshi natijalar beradi.

